

2022-yil yanvar-oktabr oylarida 4975,9 mlrd. so'mlik
(o'tgan yilgidan 178,2% ko'p) sug'urta xizmatlari ko'rsatilgan.

Shundan:

Toshkent shahrida:
3432 mlrd. so'm

Qolgan hududlarda:
1543,9 mlrd. so'm

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#90 (16543)
2022-yil, 10-dekabr
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqqan boshlagan

Dolzarb mavzu
2-bet

O'ynamaslik – yutishning
yagona yo'li

Kun nafasi
3-bet

Eski
Yangiyo'l

Siz nima deysiz?
7-bet

Ustozni haqorat
qilsa bo'ladimi?



XATIRCHILIK YOSHLARNING

O'NLAB MUAMMOLARIGA YECHIM TOPILDI

batafsil
4-5-betlarda

O'YNAMASLIK – YUTISHNING YAGONA YO'LI

“Bir soatda 100 dollar topishni istaysizmi?”, “Ko'p pul topish uchun ajoyib imkoniyat”, “Osongina, hech qanday mehnatsiz, uyda o'tirib, kuniga 1000 dollar toping”... O'ziga ohanrabodek jalb etayotgan bunday so'zlar ijtimoiy tarmoqlarda reklamalar orqali turli kanal va guruhlarga a'zo bo'lishni taklif qilib, yoshlarni totalizator o'yinlar domiga tushirib qo'yimoqda.

Odamlarda mehnat qilmay, qiynalmay, oson va tez pul topishga bo'lgan istak, texnologiyalarga qaramlik, real va virtual olamni almashtirib yuborish holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bunday o'yinlarga tobe bo'lib qolganlar nafaqat vaqtini, balki millionlab pullarini ko'kka sovurmoqda. Achinarlisi, hali yaxshi-yomonning farqiga borib ulgurmagan yoshlar katta qarz sabab o'z joniga qasd qilmoqda. **Bu o'yinlarda yutishning birgina yo'li o'ynamaslik ekanini ular hali anglab yetmayapti.**

E'tibor berib qaralsa, bukmekerklik o'yinlari, lotereyalar aholi turmush darajasi va daromadlari kam bo'lgan mamlakatlarda tez ommalashmoqda. Maoshlar oz va mansablarda o'sish yo'llari tor ko'ringan vaqtda inson qandaydir “mo'jizaviy yutuq”ni qo'msaydi. Orzu og'ushi odamlarni “katta miqdorda meros qoldirgan chet ellik qarindoshi” bilan yozishmaga, tarmoqli marketing o'rgimchak uyasiga va moliyaviy piramidaga eltadi. E'tiborlisi, shu paytgacha **totalizator o'ynab boyib ketganlarni hech kim bilmaydi, ammo, afsuski, xonavayron bo'lganlar oramizda ko'p.**

Statistikaga ko'ra, O'zbekistonda ham onlayn qimor o'ynash holatlari ortib bormoqda.

Qimor o'yinlari bo'yicha ma'muriy huquqbuzarliklar:

2019-yilda	2020-yilda	2021-yilda	2022-yilning 6 oyida
1454 ta	2864 ta	3372 ta	2325 ta

Bu o'yinlarni tashkil etish bilan bog'liq jinoyatlar:

55 ta	86 ta	103 ta	90 ta
-------	-------	--------	-------

Onlayn qimorda yutqazgani sababli o'z joniga qasd qilib, vafot etganlar

(barchasi 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar):

6 nafar	6 nafar
---------	---------

Totalizatorlarda pul topishni kasb qilganlar giyohvand modda ta'sirida bo'lgandek, o'yin domiga tushib qoladi. Ma'lumotlarga ko'ra, AQShda so'nggi yillarda 6 milliondan ortiq odam qimor o'yinlari sabab kasal bo'lib, davolanishga muhtojligini va o'zini boshqara olmayotganini ma'lum qilgan. Internetda tavakkalchilikka asoslangan bunday o'yinlar qurboniga aylanayotganlarning aksariyati “Z” (zumer so'zidan olingan bo'lib, internet savodxonligiga ega bo'lmagan) avlod vakillari hisoblanadi. Bu avlod mobil telefonlar bilan ulg'ayayotgan – 1997-2015-yillar oralig'ida tug'ilganlardir. 2019-yilda ularning 97 foizi mobil telefondan foydalangan va 78 foiz “Z” avlod vakillari ma'lumot olish va maroqli vaqt o'tkazishning asosiy vositasi sifatida smart qurilmalarni ko'rsatgan.



“**AQSHDA SO'NGGI YILLARDA 6 MILLIONDAN ORTIQ ODOM QIMOR O'YINLARI SABAB DAVOLANISHGA MUHTOJLIGINI VA O'ZINI BOSHQARA OLMAYOTGANINI MA'LUM QILGAN.**”


QONUNCHILIKDA NIMA BELGILANGAN?

Bugungi kunda deputatlar ko'rib chiqayotgan qonun loyihasiga ko'ra, Jinoyat kodeksida internetda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar yuzasidan qator o'zgarishlar ko'zda tutilmoqda.

Xususan, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish, o'tkazish yoki ularda ishtirok etish uchun telekommunikatsiya tarmoqlari yoxud internet jahon axborot tarmog'i orqali xizmatlar ko'rsatish, tegishli dasturiy ta'minotdan nusxa ko'paytirish, tarqatish bazaviy hisoblash miqdorining **50 baravaridan 75 baravarigacha** miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish

ishlari bilan jazolanadi. Shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, BHMning **400 baravaridan 600 baravarigacha** miqdorda jarima yoki 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilayotgan qo'shimchalarga ko'ra, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, tarqatish, reklama qilish va namoyish etish vositalarini musodara qilib, fuqarolarga BHMning **100 baravari, mansabdor shaxslarga esa 200 baravari miqdorida** jarima solishga sabab bo'ladi.



LUDOMANIYA

Onlayn qimor ruhiy kasallikka olib keladi, uning nomi – ludomaniya. Qimorga qaramlik – bu ko'plab salbiy psixologik, jismoniy va ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan progressiv “giyohvandlik” hisoblanadi. Totalizator qurboni topgan pulini o'yinlarda isrof qiladi, oilasiga moddiy zarar yetkazadi, birovlardan qarz, bankdan kredit olib, tubi ko'rinmas jarlikka qulay boshlaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi bir necha yil ichida global miqyosda totalizator o'ynash darajasi oshgan. Bu illat tufayli bir necha salbiy oqibatlar yuzaga keladi.

Vaqt bekorga sarflanishi. Dastlab qo'shimcha daromad topish, keyinchalik “jazava” sirtmog'iga tushib, yutqazilgan pulning o'rnini qoplash maqsadida kunlab, haftalab, oylab va hatto yillab ketgan vaqt natijasida inson o'z shaxsiy taraqqi-

yoti uchun investitsiya qilishi kerak bo'lgan bebaho ne'matini yo'qotadi.

Sog'likka ta'siri. Tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar insonda umidsizlik va nochorlik hissinı keltirib chiqaradi. Ular depressiya, migren, ichak kasalliklari va stress bilan bog'liq boshqa muammolarga duch keladi. Yirik summani yutqazish inson huzur-halovatini yo'qotadi. O'yinga berilib ketganlar yotganida ham, turganida ham, har doim pul tikib, yutish haqida o'ylaydi. Zararli oqibatlari tufayli ko'plab mamlakatlarda qimor o'yinlariga qaramlik sog'liqni saqlash sohasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Moliyaviy muammolar. Inson o'ziga, yaqinlariga va xayrli ishlarga ajratishi kerak bo'lgan mablag'larini asossiz tarzda yo'qotadi. Moliyaviy qiyinchiliklar sabab odamlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatlar ko'payadi.

KAMCHILIGI BOR AVTOMOBIL HAYDOVCHILARI POSTLARDA HARAKATLANA OLMAYDI

2022-yil 1-dekabrda boshlab “Yashil” va “Qizil” yo'lak tamoyili Toshkent viloyati Ohangaron tumanida joylashgan “Chinor” yo'l-patrul xizmati statSIONAR postida joriy etildi.

Endilikda qidiruvda bo'lgan, texnik ko'rikdan o'tmagan, sug'urta polisi mudati o'tgan, vazni va hajm parametrlarini buzib harakatlangan yoki yo'l qoidalarini buzganlik uchun jarima solish haqida qaror chiqarilgan kundan e'tiboran 60 kun ichida to'lanmagan jarima aniqlansa, shu avtomobildan “Qizil yo'lak”da harakatlanish talab etiladi.

Haydovchilar statSIONAR postlaridan 700 metr oldin joylashgan transport vositalarining davlat raqam belgisini qayd etuvchi va maxsus diodli ekranda qayd etilgan ma'lumotga asosan yashil yoki qizil yo'lak orqali harakatlanishi haqida axborot olishadi. Ushbu maskanlarda inson omilini cheklagan holda transport vositalarining to'siqsiz harakatlanishini ta'minlaydi.

O'ZA

ESKI YANGIYO‘L

Respublikamizning barcha hududlaridagi kabi poytaxtning biqinidagi Yangiyo‘l tumanida ham energetika bilan bog‘liq muammolar tufayli ahvol yaxshi emas. Bizga kelgan murojaatlarni o‘rganish maqsadida Yangiyo‘l tumanidagi “Qora tepa” mahallasini kezar ekanmiz, bu yerlar eski O‘zbekistonda qolib ketgan shekilli, deb o‘ylab qolasan kishi.

Mahallaga kiraverishdagi yo‘lning ikki tomonida ikki do‘kon, chiroq yo‘qligi uchun sotuvchilar “fonar” yordamida savdo qilyapti. Go’sht, sut, yarim tayyor mahsulotlar sotiladigan bu do‘konlar mahsulotlarning sifatini qanday saqlab qolyapti? Do‘kon ichidagi harorat ko‘chanikidan deyarli farq qilmaydi, sotuvchi qiz issiq kiyimlarga burkanib olgan.

– Do‘konimiz katta, gaz bilan isitamiz. Baxtga qarshi besh-olti kundan buyon gaz bosimi juda past, do‘konni hatto iliq saqlab bo‘lmayapti. “Svet” har soatda o‘chib-yonadi, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlaydigan muzlatkichlarimizni ishlatish uchun elektr quvvati yetmayapti, shuning dastidan bitta muzlatkichimiz kuyib ham qoldi. Qarang, do‘konimizda go’sht, sut, qandolatchilik, yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini deyarli ko‘rmaysiz. Ularni olib kelganimiz bilan muzlatkich ishlamaydi, nati-

jada mahsulotlar tez aynib qoladi. Shoshilinchda kerak bo‘lib qolganda boshqa do‘konlardan ham topa olmaysiz, negaki hammasida shu ahvol. Kerakli narsani olish uchun shaharga chiqib kelish zarur, – **deydi Muhabbat Odiljonova.**

Nafaqat do‘kon, balki xonadonlarni isitish ham muammo bo‘layotganini aytadi ayollar.

– Besh kundan beri uyda ham ust kiyimlarni yechmay yuripmiz, gaz past, tok pechkalar ham elektr quvvati kamligidan ishlamayapti. Gazning uyni isitishi tugul, ovqat qilish, choy damlashga ham kuchi yetmayapti. Yaxshiyamki, o‘chog‘imiz bor, osh-ovqatni shunda qilyapmiz, – **deydi Malohat ismli ayol.**

Ma‘lum bo‘lishicha, mahallada toza ichimlik suvi yo‘q, quduq yoki katta suv idishlariga maxsus mashinalarni chaqirib, quydirib olishadi.

– Qayta-qayta murojaatlarimiz natijasida mahallamizni shu yil asfalt qildirdik. Ichimlik suvimiz yo‘q, suvni litrlab sotib olamiz. Gaz “zapravka”larida bu muammolar bo‘lganidan beri suv ham topa olmayapmiz, mashinalar kelmayapti. O‘zi avvallari ertalab va kechqurunlari tok quvvati kam bo‘lgani uchun “ariston”larimiz ishlamasdi, yuz-qo‘l yuvish va yuvinish uchun ham gazda qizdirib olardik. Endi na suv bor, na gaz, – **deydi mahalla faollaridan biri.**

Bu gaplarni eshitib, O‘zbekistonda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish uchun 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ qayerga ketgan ekan, deb o‘ylab qolasan kishi.

– Hammasiga ham chidaymiz, lekin kasalchilik tinka-madorni quritib yubordi. O‘zi yana koronavirus ko‘paygan paytda uylarimiz zax, mahalladagi maktabning ahvoli



ham o‘ng emas. Xonadonma-xonadon aylanib ko‘ring, har oiladan kamida ikki kishi shamollab yotibdi. Mahallada birorta dorixona ham yo‘q, narigi mahallaga yoki shahar markaziga chiqib kelamiz. Gaz yoki “svet” dan qarzdorlik bo‘lsa, darrov uzib qo‘yishni bilishadi, hech qanday qarzdorligimiz yo‘q. Bilasiz, yosh bola va qariyalar juda nimjon bo‘ladi. Uyimda yetmishga yaqinlashgan qaynonam, 9 oylik yosh bolam bor. Endi nima qilaylik, o‘tin yoqish uchun pechka qurib olaylikmi yoki tappi yasashni boshlaylikmi? Axir birlamchi ehtiyojlarimiz uchun kerakli narsalarni talab qilishga haqqimiz bordir, – **deydi Baxtigul opa.**

Shundoq ham suv ta‘minoti yo‘q bo‘lgan bu mahalla shu paytgacha muammolarini o‘zlari hal qilib kelayotgan edi. Ammo bugun ahvol o‘nglab bo‘lmas darajada.

Ijtimoiy tarmoqlarda ham kunda-kunora aholi vakillarining shaxsan Prezidentga qarata gaz yoki “svet” so‘rab qilgan murojaatlari tarqalmoqda. Biz keltirganimiz, bir mahalladan misol, xolos, ayni paytda ahvoli bundan ham yomon bo‘lgan tuman-u qishloqlar qancha...

Shahruxa SATTOROVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri



“
KUZ-QISH MAVSUMIGA
TAYYORGARLIK KO‘RISH UCHUN
2 TRILLION SO‘MGA YAQIN
MABLAG‘ QAYERGA
KETGAN EKAN.

ADJU UNIVERSITETIDAN RASMIY MUNOSABAT

“Yoshlar ovozi” gazetasining 88-sonida chop etilgan “Nomunosib dars jadvali talabalarining amaliyot o‘tashi va ishlashiga xalal bermoqda” maqolasi yuzasidan Toshkent shahridagi Adju universiteti rasmiy xat asosida munosabat berdi. Unda, jumladan, quyidagilar ma‘lum qilingan:

“Toshkent shahridagi Adju universiteti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-noyabrda PQ-4041-sonli “Toshkent shahrida Adju universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida tashkil etilgan. Qarorga muvofiq, Koreyaning shu nomdagi oliygo‘hining Toshkent shahridagi filiali hisoblangan universitetimizda o‘qishga qabul, o‘quv jarayonini tashkil etish va bitiruvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish Koreyaning

Adju universiteti o‘quv rejalari va dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Universitet to‘laonli faoliyat yuritishi uchun qarorda ko‘rsatilgan sobiq Yashnobod qurilish va temir yo‘l kollejarining o‘quv va ma‘muriy binolari qayta qurilishi va kapital ta‘mirdan chiqarilishi lozim. Biroq bugungi kunga qadar davlat investitsiya dasturiga kiritilgan sobiq kollej binolarini qayta qurish va kapital ta‘mirlash ishlari yakunlanmagan. Bu esa auditoriyalar yetishmovchiligini keltirib chiqarmoqda.

Mashg‘ulotlar jadvali o‘quv yilining boshida fanlar uchun ajratilgan soat hajmi, professor rahbarligida loyihalar ustida ishlash, mustaqil tayyorgarlik uchun ajratiladigan vaqt va auditoriyalar sig‘imidan kelib chiqib tuziladi.

Bugungi kunda universitetda 3 ta bosqichda 1200 ga yaqin talaba ta‘lim oladi. Universitetda o‘qish ingliz tilida, Janubiy Koreya, AQSh, Hindiston va Pokistondan taklif etilgan professor-o‘qituvchilar tomonidan olib boriladi.

Koreyaning Adju universiteti talabalariga ko‘ra, universitetda dars berishga nomzod professor-o‘qituvchi dunyoning top-500 taligiga kiritilgan oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim olgan, kamida 5 yillik pedagogik stajga ega bo‘lishi, ilmiy darajasi falsafa doktori (PhD)dan past bo‘lmasligi lozim. Ushbu talablarga mos keluvchi mahalliy professor-o‘qituvchilar yetishmasligi sabab bugungi kunda mutaxassislik fanlari: “Building Materials”, “Theory of Urban Regeneration”, “Reinforced Concrete Structure”, “Contemporary

Architecture”, “Image Signal Processing”, “Artificial Intelligence System” fanlaridan mashg‘ulotlar Koreyadagi Adju universiteti professorlari tomonidan Koreyadagi studiyalar orqali onlayn tartibda o‘qitiladi. Bu esa mashg‘ulotlarni o‘qitish davrida Koreya va O‘zbekiston orasidagi vaqt farqini keltirib chiqaradi.

Universitetda ushbu faktorlarni hisobga olgan holda mashg‘ulotlar jadvali tuzilgan va imkoniyat darajasida talabalarni ish bilan ta‘minlashga harakat qilinmoqda...

Universitet ma‘muriyati “Yoshlar ovozi” gazetasi tahririyatiga universitet hayotiga befarq bo‘lmaganligi uchun o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

ADJU universiteti
matbuot xizmati

Munosabat

OLIS HUDUD YOSHLARINING O'NLAB MUAMMOLARIGA YECHIM TOPILDI

Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sa'dullayev boshchiligidagi ishchi guruh olis hudud yoshlarining taklif va g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, muammolarini o'rganish maqsadida Navoiy viloyati Xatirchi tumanida bo'ldi. O'rganishlar xatirchilik mahalla yoshlar yetakchilari bilan uchrashuvdan boshlandi. Alisher Sa'dullayev uchrashuvda "Jaloyir" mahallasi yoshlar yetakchisi Jahongir Gadoyniyozovdan mahalla qizlari "Besh tashabbus olimpiadasi" respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib qaytayotganini eshitib, mahallada sportchi qizlarni kutib olish marosimida ishtirok etishga va'da berdi.

Iqbol PARDAYEVA, "Yoshlar ovozi" muxbiri

Jahongir GADOYNIYOZOV,

Xatirchi tumanidagi "Jaloyir" mahallasi yoshlar yetakchisi

– Va'daga muvofiq ertasi kuni Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sa'dullayev mahallamizdagi "Lochin" bolalar sport majmuasida sportchi qizlarni kutib olish marosimida ishtirok etdi. Bu sportchi qizlarimiz uchun kutilmagan sovg'a bo'ldi. Ularni tabriklab, biz bilan birga mahallamizdagi xonadonlarga tashrif buyurdi.

Sayyor Muhammadiyev Uchquduq tuman sanoat texnikumini tamomlab, anchadan buyon ish qidirib yurgan edi. Alisher Sa'dullayev xatlov jarayonida uning xonadoniga ham borib, bir vaqtda xonadondagi ikki nafar ishsiz yoshning muammosini hal etib berdi. Aka-uka Muhammadiyevlarning ikkisi ham o'zi istagan korxonaga ishlash uchun yo'llanmaga ega bo'ldi va ertasi kundan ish boshladi. Agentlik direktori mahallamiz yoshlarining sportga qiziqishini o'rganish va sharoitlar bilan yaqindan tanishish maqsadida hududimizdagi 5-maktabda ham bo'ldi. Maktabdagi sharoitlar bilan tanishib, shaxmat to'garagi murabbiyi bilan o'yin ustida suhbat qildi.

Alisher Sa'dullayev safar davomida xatirchilik yoshlarning zamonaviy kasblarni o'rganishi uchun qanchalik imkoniyatlar yaratilgani bilan qiziqdi va shu maqsadda tumandagi "Jaloyir", "Grand" kabi bir nechta o'quv markazlariga bordi. Yoshlarning ingliz tili va Ay-Ti sohasini mukammal o'rganishi uchun nima zarur bo'lsa, imkon darajasida yordam berishga va'da qildi. Xususan, imkoniyati yo'q yoshlarning ta'lim olish xarajatlarini to'liq qoplab berish taklifini bildirdi.



Xalq orasida "Abituriyentlar qishlog'i" deb e'tirof etiladigan mashhur "Tamabaxrin" mahallasi ishchi guruhning navbatdagi manzili bo'ldi. E'tiborlisi, bu mahallada 4 ming nafarga yaqin abituriyent boshqa hududlardan kelib tahsil oladi. Bilim olish istagidagi yoshlarning sharoiti bilan qiziqqan Yoshlar ishlari agentligi rahbari abituriyentlarning yashash xonadonlarida bo'ldi. U yerdagi sharoitlar bilan tanishib, repetitor o'qituvchilarning tajribasini ommalashtirish taklifini ilgari surdi. Shundan so'ng mahalladagi 22-maktabga yo'l oldi.



“ABITURIYENTLAR QISHLOG'I”





Dilshoda MUSTAFOYEVA, Xatirchi tumanidagi 22-maktab- ning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi:

– Maktabimizdan bir nechta chempionlar yetishib chiqqan. Shunday yoshlardan biri shaxmat bo'yicha 6 karra O'zbekiston chempioni Shahrizoda Bashritdinova. U 2019-yili Qirg'izistonda o'tkazilgan "Issiqko" (OPEN-2019) xotira turniri oltin medali sohibi, xalqaro va ochiqturnirlar g'olibi, Osiyo chempionatlari ishtirokchisidir. Yoshlar ishlari agentligi rahbari maktabimizga kelganda Shahrizoda bilan suhbatlashib, shaxmat bo'yicha o'rtoqlik o'yinini o'tkazdi. Maktab qoshida tashkil qilingan "Qo'l jangi" to'garagi a'zolari bilan suhbatlashadi.

SARTAROSHXONADAGI KUTUBXONA

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishning eng samarali usullaridan biri bu, shubhasiz, kitobxonlikdir. **"Paraxun" mahallasi yoshlar yetakchisi Alisher Sunnatullayev** ham shu maqsadda ajoyib tajribaga qo'l urdi. Mahallada o'ziga xos sartaroshxona tashkil etib, navbat kutib turgan mijozlarning qay biri kitob o'qib, vaqt o'tkazsa, 50 foizlik chegirmaga ega bo'lishini yo'lga

qo'ydi. Natijada avvaliga chegirmaga ega bo'lish uchun qo'lga kitob olgan mijozlar o'qiy boshlagan kitobidagi voqealarning yakunini bilib olish uchun sartarosh xizmatidan foydalanib bo'lgach ham shu yerda qolib, kitob o'qishda davom etmoqda. Ishchi guruhning e'tiborini tortgan mazkur tajriba sabab Alisher Sa'dullayev ayni sartaroshxonaga ham tashrif buyurdi.

Shohjahon NURMAMATOV, sartarosh:

– Anchadan buyon sartaroshlik bilan shug'ullanaman. Ammo mahallamizda bo'sh bino topilmagach, qo'shni mahalladagi sartaroshxonadan ijarasida foydalanar edim. Mahallamizga yoshlar yetakchisi tayinlangach, Alisher Sunnatullayevga bo'sh bino so'rab murojaat qildim. Mahallada bo'sh turgan eski do'konni sartaroshxona uchun ajratib berdi. Shu bilan birga, sartaroshxona uchun barcha sharoit va uskunalarni subsidiya asosida olib berdi. Yoshlar yetakchisining tashabbusi bilan "10 ta televizor ko'rgan odamni 1 ta kitob o'qigan kishi boshqaradi" loyihasi asosida sartaroshxonamizda mo'jaza kutubxona tashkil etdik.

Alisher Sa'dullayev sartaroshxonamizdagi sharoitlar bilan tanishdi. Menga mahalladagi yoshlarga hunarimni o'rgatishimni taklif qildi. Ish stulim yonidan yana bitta ish joyi uchun asbob-uskunalar ajratilishini aytdi. Mahalladagi yana bir sartaroshxonada ham bizning loyihamizni yo'lga qo'yish taklifini bildirdi.

Xatirchilik yoshlar bilan yuzma-yuz uchrashuvlar ko'plab yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratgan bo'lsa, chekka hudud yoshlarining taklif va g'oyalari qo'llab-quvvatlanib, 10 dan ortiq muammolarga yechim topildi.



“BOSH PROKUROR KUBOGI”



Respublikamizda 14 ta hudud, 208 ta tuman va shahar, 824 ta sektor va 9349 ta mahalla mavjud. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mahallada yoshlarni sportga keng jalb qilish bo'yicha **"Besh tashabbus olimpiadasi"** dasturi joriy etildi.

Shu tizim orqali kurash sport turi mahalladan boshlab, yoshlar o'rtasida yanada ommalashtirilmogda. "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida joriy yil 10-sentabrdan start berilgan 2-mavsum sport musobaqalarida aynan kurash sport turi bo'yicha **160 ming** nafardan ziyod yoshlar (shundan 53 ming nafar qizlar) ishtirok etdi.

Musobaqaning quyi bosqichlarida saralanib kelgan 80 nafardan ziyod polvonlar Toshkent shahridagi "Universal" sport saroyida final bahslarida "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori kubogi" uchun gilamga chiqdi.

Bellashuvlarda Malohat Bobonazarova, Dilshoda Amirova, Quvonchbek Narzullayev, Quvonch G'aybullayev, Otabek Nurmatov, Jasur Taganov (Qashqadaryo viloyati), Marhaboxon Habibullayeva (Andijon viloyati), Gulira'no Suvonqulova (Navoiy viloyati), Amina Mamedova (Toshkent shahri), Mohiniso Sabriyeva (Buxoro viloyati), Muhammadrasul G'aniyev (Farg'ona viloyati), Umid Rayimov (Jizzax viloyati) shohsupaning eng yuqori pog'onasidan o'rin egalladi.

Umumiy hisobda 1-o'rin Qashqadaryo viloyatiga, 2-o'rin Buxoro va 3-o'rin Samarqand viloyatiga nasib etdi. G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom, medal va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,

"Yoshlar ovozi" muxbiri

Tanlov

HUDUDIY BOSQICH YAKUNLANDI



"Eng namunali mahalla yetakchisi" tanlovining hududiy bosqichlari o'z yakuniga yetdi.

Hududiy tanlovlar yakuniy natijalariga ko'ra, Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi "Taraqqiyot" mahallasi yoshlar yetakchisi Doston Ergashev, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi "Shoxidon" mahallasi yoshlar yetakchisi Muhammadyusuf Xolmatov, Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi "G'alaba" mahallasi yoshlar yetakchisi Oybek Madrahimov, Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi "Alamli" mahallasi yoshlar yetakchisi O'tkir Husanov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi "Temir jo'l" mahallasi yoshlar yetakchisi Najibulla Ixlasov, Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi "Olmazor" mahallasi yoshlar yetakchisi Madadxon To'rayev 1-o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Muxbirimiz

HAR BAYRAMDA SHU BO'LAR TAKROR: PIROTEXNIKA MASHMASHALARI

Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi.

Yangi yil bayrami yaqin. Hozirdanoq paqildoqlar ovozi kishini vahimaga solmoqda.

“Qorabozor”da shovqini va jazbasiga qarab 30 ming soʻmdan 700 ming soʻmgacha narxlanayotgan mushaklarning bozori chaqqonlashib bormoqda. Afsuski, perotexnika vositalarining asosiy xaridorlari oʻquvchi-yoshlar.



KONTRAFAKT PIROTEXNIKA – IKKI HISSA XAVFLI

Biznes sohasidagi ushbu terminning asl maʼnosi isteʼmolchini adashtirish darajasida tovar nomini oʻzgartirishdir. Bunda tovar belgisiga boʻlgan huquqlar buzilgan hisoblanadi. Bir soʻz bilan aytganda, nohalol tadbirkor oson daromad koʻrish uchun koʻpyillik tajribaga ega, xaridorlar ishonchini qozongan va bozorda oʻz oʻrnini topgan tovar nomiga oʻxshatib mahsulot chiqaradi. Bu huquqbuzarlikka hamma mahsulotlar, hatto dori-darmon sanoatida ham duch kelish mumkin. “Qayta nomlangan”, sifatsiz dori isteʼmol qilgan bemorni muqarrar oʻlim kutganidek, kontrafakt mahsulotga aylanib, xavflilik darajasi ikki hissa oshgan piroteknika ishlatib, yangi yilni kasalxonada kutib olishingiz mumkin!


ASAB TIZIMI JIDDIY SHIKASTLANADI

Piroteknika vositalardan foydalanish oqibatida nafaqat kuyish va boshqa jarohatlar, balki asab tizimi ham jiddiy shikastlanadi. Masalan, paqildoqdan chiqadigan kuchli shovqin quloq pardalarini zararlashi, hatto yirtilishiga sabab boʻlishi mumkin. Odatda piroteknika vositalaridan foydalangandan soʻng havoda qoladigan noxush, yaʼni porox yoki shunga oʻxshash kimyoviy birikmalar hidi markaziy nerv sistemasiga jiddiy taʼsir koʻrsatib, aqliy faoliyat buzilishiga olib kelishi kuzatilgan.

QONUN NIMA DEYDI?

Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 185-moddasi bilan piroteknika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, joʻnatish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda Oʻzbekiston Respublikasiga olib kirganlik yoki oʻtkazganlik uchun maʼmuriy javobgarlik belgilangan boʻlib, huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilib, eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi. Shuningdek, Jinoyat kodeksining 250-moddasida (Piroteknika buyumlarining qonunga xilof muomalasi) piroteknika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, joʻnatish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda Oʻzbekiston Respublikasiga olib kirish (Oʻzbekiston Respublikasidan olib chiqish) yoki oʻtkazish yoxud shunday harakatlar uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan keyin sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

– Piroteknika vositalari vodiylaridan aylanma yoʻllar orqali respublikamizga noqonuniy tarzda olib kirilishi uchrab turadi. Yoki nohalol tadbirkorlar tomonidan yashil va sariq yoʻlaklardan foydalanib,



boshqa tovarlar niqobi ostida, hujjatlarni soxtalashtirish yoʻli bilan yashirincha olib oʻtilayotgan boʻlishi mumkin. Shuningdek, bundan avvalgi holatlar, yaʼni eski tartib davrida musodara omboriga topshirilgan piroteknika yashirincha yoʻllar bilan olib chiqilgan boʻlish ehtimoli ham bor. Ammo bugungi kunda FVV saqloviga berilganidan soʻng bunday vaziyatlar kuzatilish xavfi mavjud emas, – **deydi Toshkent shahar Bojxona boshqarmasi matbuot kotibi Otabek Odilov.**

“**PAQILDOQDAN CHIQUADIGAN KUCHLI SHOVQIN QULOQ PARDALARINI ZARARLASHI, HATTO YIRTILISHIGA SABAB BOʻLISHI MUMKIN.**”

KICHIK PAQILDOQDAN YIRIK YONGʻINGACHA

Ayni kunlarda yurtimizda yongʻinga qarshi kurashish oyligi bormoqda. “Tilsiz yov”ga baʼzan is gazi, baʼzan oʻzboshimchilik bilan foydalanilgan isitish pechlari, ayrim hollarda kichkinagina paqildoq ham sabab boʻlishi mumkin. Ammo barchasining tub zamirida befarqlik yotadi. Yangi yil bayrami kunlari yongʻinlar xavfi va soni ortadi. Chunki xursandchilik paytida koʻpchilik hushyorlikni yoʻqotadi va koʻngilsizliklarga sabab boʻladi.

“EL-YURT UMIDI” JAMGʻARMASI TALABALAR AMALIYOTINI MOLİYALASHTIRADIMI?

– “El-yurt umidi” jamgʻarmasi tomonidan ajratiladigan xarajatlarning miqdori cheklanganmi?

– “El-yurt umidi” jamgʻarmasi matbuot xizmati maʼlumotlariga koʻra, xorijda bakalavriat, magistratura va doktoranturada taʼlim olish davrida bitta stipendiya sohibiga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdori jamgʻarmaning Vasiylik kengashi tomonidan belgilanadi.

– Jamgʻarma mahalliy OTMLar talabalarini amaliyotini yoki shunga oʻxshagan dasturlarni moliyalashtiradimi?

– Jamgʻarma stipendiyasi orqali xorijda bakalavriat, magistratura va doktoranturada taʼlim olishni moliyalashtirish mumkin. Talabalar amaliyoti yoki shunga oʻxshagan dasturlar jamgʻarma tomonidan moliyalashtirilmaydi.

Maʼlumot oʻrnida taʼkidlash lozimki, “El-yurt umidi” jamgʻarmasi tanlovida nomzodlar kosmik texnologiyalar, nanotexnologiyalar, IT va raqamlashtirish, sunʼiy intellekt sohalari, atom va quyosh energetikasi hamda energiyaning tiklanadigan manbalaridan foydalanishning boshqa innovatsion

“EL-YURT UMIDI”
JAMGʻARMASI
KOʻMAGIDA
OʻTGAN TOʻRT
YIL DAVOMIDA
1 MING 500
NAFARGA YAQIN
YOSHLARNING
RIVOJLANGAN
MAMLAKATLARDI
TAʼLIM OLIISHI
TASHKIL ETILGAN.

yoʻnalishlari, sogʻliqni saqlash, farmatsevtika, telemeditsina, virusologiya, mikrobiologiya, immunologiya sohalari, elektroenergetika, neft-gaz, neft-kimyo, kimyo, metallurgiya sohasining ustuvor tarmoqlari hamda mashinasozlik, avtomobil, elektrotexnika, toʻqimachilik va mahsulotlarni standartlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish kabi eng ustuvor sohalarda boʻyicha ishtirok etishlari mumkin.

Oʻqitish qiymati toʻlovi, viza olish, transport vositalari xarajatlari, xorijiy mamlakatda yashash, ovqatlanish va transport xarajatlari, zarur oʻquv va ilmiy adabiyotlar xarid qilish, xorijiy taʼlim yoki ilmiy muassasa talabiga binoan maqola chop etish, ilmiy maqolalar koʻchirib olish, maqolalar va ilmiy adabiyotlarning elektron bazasiga obuna boʻlish, tibbiy sugʻurta hamda jamgʻarma Vasiylik kengashi qaroriga koʻra boshqa xarajatlar “El-yurt umidi” jamgʻarmasi tomonidan qoplab beriladi.

OʻZA muxbiri

Muhayyo TOSHQORAYEVA yozib oldi.

USTOZNI HAQORAT

QILSA BO'LADIMI?

Maktablarda o'quvchilarning ustozlariga nisbatan qo'pol so'zlarni ishlatishi, kalaka qilishi, hatto kaltaklashi holatlari ko'paymoqda. Ayrim o'quvchilar o'qituvchiga gap qaytarayotganiga ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan xabarlardan guvoh bo'layotgandirsiz.

Ustozlar martabasi jamiyatdagi boshqa har qanday qatlam vakillaridan yuksak emasmi? Axir ular dunyoning sir-sinoatini ko'rsatib, ilm ziyosi orqali hayotni anglashimizga yordam beruvchi ulug' kasb egalari-ku.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning **45-moddasida** ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi, ularning kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek, pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmasligi yozib qo'yilgan. Qonunning **48-moddasida esa** o'quvchilarning o'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashg'ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rish, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi, ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va ruhiy zo'ravonlik ishlatmasligi majburiyatlari belgilangan.



OTA-ONA TARBIYASI

Xo'sh, nima sababdan o'quvchilarda ustozga nisbatan hurmatsizlik va agressiv holatlar ko'paydi?

Psixolog fikriga ko'ra, bunga asosiy sabab oilada ota-ona ustozga yaxshi munosabatda bo'lishi kerakligini o'rgatmaganidir. Ular biror ayb qilib qo'ysa, kechirim so'rashi zarurligini, kattalarga doim hurmatda bo'lish lozimligini anglatib borishi kerak. Avvalo, ota-onalar ta'lim berayotgan ustozlarni hurmat qilsa, bolalar ham ota-onaga qarab fikr yuritadi.

Bu borada **Yakkasaroy tumanidagi 172-maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Nilufar Yunusova** shunday deydi:



– Yaqinda bir o'quvchining onasi bilan gaplashdim, ona o'g'liga "singlingni biron xafa qilsa, qarab o'tirma, borib ur", deb aytgan ekan. Onaning birgina gapi orqasidan maktabda katta janjal bo'lib ketgan. Keyin o'sha onaga maktab pedagoglar hududi ekanini, bu yerda kuch emas, so'z bilan tushuntirish zarurligini, qandaydir muammo bo'lsa, ustozlarga aytish kerakligini tushuntirdim. Ona "bunday ishlar bo'lib ketishini bilmagandim", deyapti. Baribir ota-ona pedagog emas-da, agar pedagogday fikrlaganida farzandlariga "ustozingni hurmat qil", degan bo'lardi. Hazrat Alisher Navoiy zamonida ustozlar bolalarni qattiqqo'llik bilan o'qitgan, ota-onalar bunga rozi bo'lgan. Ota-ona bizga farzandini tashlab ketsa, uni urib o'ldirib qo'ymaymiz. O'zimiz ham birinchi navbatda ota-onamiz-ku! O'quvchilarga qaysi yo'l to'g'ri, qaysi noto'g'rligini tushuntiramiz. Buni ba'zi ota-onalar tushunmay, bolaga noto'g'ri tarbiya beryapti. Agar ota-onalar maktabni, ustozni hurmat qilish zarurligini farzandiga tushuntirsa, ta'lim sifatimiz ham o'zgaradi. Ushbu muammolarning oldini olish maqsadida maktabimiz direktori Zebo Ziyamuhammedova tashabbusi bilan maktabimizning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi hamkorligida davra suhbatlari hamda ijodiy uchrashuvlar o'tkazib kelmoqdamiz.



Shahribonu RAHMATOVA tayyorladi.

USTOZ DO'ST BO'LISHI ZARUR

Hamma aybni ota-onaga to'nkash to'g'ri bo'lmaydi. Qaysidir ma'noda bunday holatlarga o'qituvchining o'zi ham sababchi bo'lib qolyapti. Hozirgi bolalar juda uddaburon va sergak. Yaxshi muomalani tushunadi. O'qituvchi bolaga yoqmaydigan munosabatda bo'ladi va o'zining bola oldidagi hurmatini yo'qotib qo'yadi.

– O'qituvchilar bolalar bilan do'stona muomala qilishi kerak. Ba'zilar bola bilan yaxshi munosabat o'rnatolmagandan so'ng haqoratli so'z ishlatadi. O'g'il bolalar o'rtasida o'qituvchiga qo'l ko'tarish, so'kib yuborish holatlari kuzatilyapti. Chunki o'g'il bolalar bu paytda na bola bo'ladi, na katta yigit. Ular bu paytda o'z tasavvuri bo'yicha – erkak, o'zining zo'rqligini isbotlash uchun jahli chiqib ketganida ustozga qo'pol munosabatda bo'ladi. Bu holat, asosan, o'spirin yoshda – 6-7-sinfda boshlanadi, – **deydi psixolog Shahnoza Sangilova.**

–

“

BARIBIR OTA-ONA
PEDAGOG EMAS-DA, AGAR
PEDAGOGDAY FIKRLAGANIDA
FARZANDLARIGA "USTOZINGNI
HURMAT QIL", DEGAN
BO'LARDI.

O'quvchilar fikricha, ular darsga kechiksa yoki biror xato qilsa, ustozlar hammaning oldiga chiqarib, izza qiladi. Aslida, ustozlar bolalarni yoniga chaqirib, xatosini tushuntirishi kerak. O'qituvchi haqoratli so'zlarni ishlatmasligi zarur. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning **45-moddasida** ustozlarga ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilish majburiyati yuklab qo'yilgan. **47-moddaga** ko'ra esa ta'lim oluvchilar pedagog xodimlar va ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog'lig'iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo'ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalaniish huquqiga ega.

QADRIYATLARGA MUNOSABAT QANDAY?

Sunnatillo PRIMOV,
O'ZMU 3-kurs talabasi

Bugungi davrda turli sohalarida bo'lgani kabi qadriyatlar borasida ham o'zaro yaqinlashuv yoki qarama-qarshiliklar kelib chiqmoqda. Ba'zi tengdoshlarimning qadriyatlarimizga munosabati kun sayin salbiy tomonga o'zgarib bormoq-

da. Asrlar davomida shakllanib kelgan an'analarimizga go'yoki eskilik sarqiti sifatida qaralayotgandek.

Aslini olganda, hech birimiz o'z qadriyatlarimizga yopishib, zamonaviy davr talablarini rad qila olmaymiz, lekin zamonaviylik bilan birga,

milliy qadriyatlarni ham rivojlantirish zarur. Ammo yoshlarimiz turli xalqlar tomonidan targ'ib qilinayotgan va bizning qadriyatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan kiyinish, yurish-turish, muomala madaniyatini ko'r-ko'rona o'zlashtirib olayotgani milliy qadriyat-

larimizga salbiy ta'sir etmoqda.

Yoshlarning milliy qadriyatlariga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish faqat ota-ona yoki ta'lim muassasasining emas, balki butun jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

“CHAMANZOR”

Shahribonu RAHMATOVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

Naqqoshlik amaliy san'atning eng ko'p tarqalgan turlaridan. Insondan kuchli sabrni, matonatni, e'tiborni talab qiladi. Bu san'at turi faqat go'zal va mayda bezaklar bilan tomoshabinlarni o'ziga jalb qilib qolmay, balki tarkibidagi elementlar orqali ham ma'lum bir ma'nolarni anglatadi. Qadimda ham xattotlar yozuvlarga go'zal ko'rinish berish uchun ularni turli naqsh bezaklari holatiga keltirgan.

Guliruh Normaxmatova ushbu qadimiy san'at bilan shug'ullanayotgan yoshlardan biri. U Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining amaliy san'at asarlarini ta'mirlash yo'nalishida o'z sohasining sirlarini o'rganmoqda.

Kuni kecha Toshkent Fotosuratlar uyida Guliruhning “Qadriyatlar beshigi-da ulg'aygan bolangman, Vatan!” nomli shaxsiy ko'rgazmasi ish boshladi. Ko'rgazmaga “Chamanzor”, “Devoriy naqsh”, “Cheksizlik”, “Saxovatli yoz”, “Hosildorlik”, “5 farz”, “Naqsh kompozitsiyasi”, “Nastarin bilan natyurmort”, “Kapalaklar dunyosi”, “Qushlar raqsi”, “Qo'ltiqtumori” nomli bir qancha ijodiy ishlar taqdim etildi.

Uning “Chamanzor” nomli ijodiy ishi e'tiborimizni tortdi. Asarda naqsh elementlari, asosan, tabiatdan olingan, gullar, novdalar, qushlar, turli shakldagi barglar. Guliruh asarida tabiatning qanchalik go'zalligini, undagi gullarning rang-barangligini, bu go'zallikka qushlar ham maftun bo'lishini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Bundan tashqari, turli geometrik shakllardan foydalani shi asarga yanada jilo bag'ishlaydi. Ijodkorning aytishicha, bu asar taxminan ikki oyda yaratilgan.



“

IJODDA HAR
BIR RANGNI
QO'YGANINGIZDA
UNDAN KEYIN
QANDAY RANG

KERAK EKANINI
BO'YOQNING O'ZI
“AYTADI”. BARCHA
RANGLAR O'ZARO
MUTANOSIB
BO'LMOG'I
DARKOR.

Guliruh 19 yoshda, ammo sohasi ortidan erishgan yutuqlari ko'pchilik uchun havas. U O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, Italiya elchixonasi va yana bir qancha muassasalar tomonidan tashkil etilgan san'at haftaligi va tanlovlarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan.



Ustozi Javlon Akkulov uning ijodi haqida shunday deydi:

– Rassomdan eng birinchi talab qilinadigan narsa rang tanlash qobiliyati. Guliruh ham asarlarini chizib bo'lgach, avvalo, umumiy rangini o'ylab, aniqlab olib, keyin sekinlik bilan ishlov beradi. Ijodda har bir rangni qo'yganingizda undan keyin qanday rang kerak ekanini bo'yoqning o'zi “aytadi”. Barcha ranglar o'zaro mutanosib bo'lmog'i darkor. Guliruhning asarlarida ham ranglar o'zining ortidan boshqasini ergashtirib keladi. U ko'proq ochiq ranglardan foydalangan.

Guliruhdan san'atdagi xulosalari va ijodkorlar duch keladigan muammolar haqida so'raganimizda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarimizga nisbatan e'tibor, muhabbat kamayib borayotgani, amaliy san'at turlariga qaratilgan targ'ibotlarni yanada kuchaytirish lozimligini, yoshlarni san'atga qiziqtirish, bo'sh vaqtini unumli o'tkazishi uchun turli hunarmandchilik o'quv markazlarini tashkil etish lozimligini ta'kidladi.

Fikr

KREDIT-MODUL QO'RQINCHLI TIZIMMI?

Yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi yo'lga qo'yilganidan xabaringiz bor. Xalqaro andazalarga ko'ra, bu tizim qanday ishlashi kerak?

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishiga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;



• ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Tizim talabalar bilim darajasini oshirish maqsadida joriy qilingan bo'lsa-da, bizning OTMLarda “mahalliylashib”, talabaga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sistema bo'lib shakllanmoqda. Talabalar davomati qat'iyligi, joriy, oraliq, yakuniy baholari qo'yilmasligi uchun ishlatiladigan “qo'rqinchli” vositaga aylanib ulgurdi. Aslida, tizim talabalar bilim darajasini oshirish, ularga qulaylik va mustaqil bilim olish imkonini yaratish, shaffoflik uchun olib kiritilgan edi.

Otabek ABDUXOLIQOV,
O'ZJOKU talabasi

**YOSHLAR
OVOZI**

Bosh muharrir:

Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV**

Musahhih:
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1255, Adadi – 10525. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6